

O‘QISH DARSLARI ORQALI O‘QUVCHI MA’NAVİY DUNYOSINI BOYITISH

Maxmudova Dilnoza Muxtorovna,
Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani
1-sonli maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkillash va olib borish haqida fikr yuritilgan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ertaklar olamiga sayohati o‘quvchi ma’naviy dunyosini boyitishda muhim manba ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: barkamol shaxs, o‘qish darslari, adabiy matnlar, ifodali o‘qish, og‘zaki nutqni o‘stirish, yozma nutqni va savodxonlikni rivojlantirish, ertaklar tahlili.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkillash va olib borish o‘qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Chunki yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirib borish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, mehr-oqibat kabi tuyg‘ularni tarbiyalash bugungi ta’lim-tarbiya masalasining dolzARB vazifasidir. Shu sababli umumta’lim maktablarida o‘qish darslariga alohida e’tibor beriladi. O‘qish darslarida asosan, darslikda adabiy matnlar bilan bir qatorda tarix, geografiya, odobnama kabi fanlarga oid matnlar ham beriladi. Chunki o‘quvchilarga adabiy matnlar mazmun-mohiyatini tushuntirishda tasavvurlarini, dunyoqarashlarini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish, yaxshini yomondan ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish, ularning tuyg‘ularini tarbiyalash zarur. Adabiy ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining:

- a) bexato, ravon, ifodali o‘qishlari;
- b) o‘qiganlarini tushunish, tushunganlarini tushuntira olishi;
- v) ular asosida og‘zaki nutqni o‘stirish;
- g) yozma nutqni va savodxonlikni rivojlantirish

asosiy maqsad hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda, asosan, o‘qilgan matnlardan didaktik xulosalar chiqarsh muhim sanaladi. Sinf o‘quvchilarining saviyasi, tayyorgarlik darajasiga ko‘ra 3-4-sinflarda matnlarni didaktik tahliliga keng o‘rin berish mumkin, shuningdek, estetik tahlil unsurlarini ham kirlitsa bo‘ladi. Bu sinflarda she’rlar qofiyasini topish, qofiyaning she’r musiqiyligini ta’minlashdagi ahamiyatiga e’tibor berish, so‘z o‘yinlariga diqqat qaratish estetik tahlil chizgilarini deyish mumkin.

O‘qish darsligida “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” (2-sinf) rukni ostida berilgan ertaklarda ham didaktik tahlilga keng o‘rin berish lozim. Masalan, “Tansihatlik – tuman boylik”, “Kenja o‘g’il”, “Eng yaxshi sovg‘a”, “Aqli bola”, “Hakka bilan tulki” (o‘zbek xalq ertaklari), “Tulki va xo‘roz” (eron xalq ertagi), “Somon, cho‘g’ va loviya” (Akauka Grimmlar) kabi ertak qahramonlari orqali va ularning qilgan ishlari asosida ibratli xulosalar chiqarishga o‘rgatish zarur. Aslida, ertaklar xalq og‘zaki ijodi janrlari

hisoblanadi. Olim D.Quronovning fikricha, “Ertak – xalq og’zaki ijodidagi epik janr, cho‘pchak. Ertak barcha xalqlar og’zaki ijodida qadimdan shakllangan va faol janrlardan sanaladi. Ertaklar, asosan, nasrda yaratilib, syujeti asosida sehrli-fantastik, sarguzasht yoki maishiy xarakterdagi voqealar yotadi, voqealar bayoni va talqinda ijodiy fantaziya, to‘qima salmoqli o‘rin tutadi”. [1:375] Ko‘rinadiki, xalq og’zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertaklardir. Xalq tomonidan yaratilgan ko‘plab ertaklarda bolalarning o‘ziga xos hayoti chetlab o‘tilmagan. Hatto turli yoshdagi bolalar uchun juda ko‘p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog’lanishi, insonlarga axloqiy va ma’naviy yo‘ldosh bo‘lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma’naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug’orilgan bo‘lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ziga dushman bo‘lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g’olib chiqadi. [2:33]

O‘zbek xalq ertaklaridan biri “Kenja o‘g’il” ertagida otaning o‘g’illariga har bir shahardan do‘sit orttirishini o‘sha shaharlarda qo‘rg’on qurishiga o‘xshatadi. Ha, albatta, bejizga xalqimiz “Do‘sting bo‘lsa, bog’ing chamandir” deb aytmagan. Ertakdagi kenja o‘g’ilning oqila va dono xotini cholning o‘g’illariga qarata: “Turli shaharlarga borib, qo‘rg’on solib kelinglar!” [3:134] degan so‘zlarining mazmun-mohiyatini to‘g’ri anglaydi va shu orqali cholning maqsadi oydinlashadi. Ertak so‘ngida chol: “Har bir shahardan orttirilgan do‘sit u yerga bir qo‘rg’on qurish bilan teng! Mening maqsadimni faqat kenja o‘g’lim tushunibdi”, deydi. Mazkur ertakning didaktik tahlili asosida o‘quvchilarga do‘sit orttirish va do‘ssti qadrlash zarurligi haqidagi g’oyalarni singdirish zarur. Bundan tashqari, o‘quvchilarga odamlar bilan muloqotga kirish va nutq odobi haqida ham fikrlarni aytib o‘tish lozim. Ertakni sinfda tahlil qilganda har bir o‘quvchidan shaxsiy fikrini so‘rash, “ertakdan qanday xulosa chiqardingiz” deb ularga murojaat qilish tahlilda yaxshi samara beradi. Yana shuni ham aytish kerakki, o‘quvchilar ertaklarni o‘zlari mustaqil mutoala qiladilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag’ishlaydi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilonaga hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxoniga tez yetib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang’ich sinflarda o‘qish darslarini tashkillash va olib borish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ertaklar olamiga sayohati o‘quvchi ma’naviy dunyosini boyitishda muhim manba. Darslarda o‘quvchilarga ertaklardan to‘g’ri xulosa chiqarishga o‘rgatish yosh avlodni axloqiy-ma’naviy jihatdan boyitishga, mustaqil fikrlashga undaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Quronov D., Mamajonov Z., SHeralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, Akademnashr, 2013.
2. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va ifodali o'qish. Toshkent, 2017.
3. G'afforova T., Nurullaeva SH., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, 2018
4. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.
5. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
6. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.
7. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
8. Oripova, G. M., & Abdurasulova, N. A. Q. (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 213-220.
9. Oripova, G., & Alijanova, M. A. Q. (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 221-226.
10. Oripova, G., & Ibrohimova, G. (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKALAR. International scientific journal of Biruni, 1(2), 251-255.
11. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1(2), 304-309.
12. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
13. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
14. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10 (11), 656-664.

15. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem " Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.

16. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. Конференции, 1(2).